SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Ped.37.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

ALLAMURODOVA SABOHAT IBODULLAYEVNA

INGLIZ ADABIYOTINI O‘QITISHDA KULTUROLOGIK YONDASHUV (OLIY TA’LIM TASHKILOTLARI MISOLIDA)

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Samarqand – 2026

UO‘K: 378.091.3:811.111:821.111

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Contents of the dissertation abstract for a Doctor of Philosophy (PhD)
in Pedagogical sciences**

Allamurodova Sabohat Ibodullayevna
Ingliz adabiyotini o‘qitishda kulturologik yondashuv
(oliy ta’lim tashkilotlari misolida)..... 5

Алламуродова Сабохат Ибодуллаевна
Культурологический подход в преподавании английской литературы
(на примере организаций высшего образования) 25

Sabokhat Ibodullayevna Allamurodova
Culturological approach to teaching English literature
(on the example of higher education institutions)..... 51

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works 56

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Ped.37.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

ALLAMURODOVA SABOHAT IBODULLAYEVNA

INGLIZ ADABIYOTINI O‘QITISHDA KULTUROLOGIK YONDASHUV (OLIY TA’LIM TASHKILOTLARI MISOLIDA)

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Samarqand – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Ped6292 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.samdchti.uz) hamda "ZiyoNET" Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Mirzayev Ibodulla Kamolovich** filologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Nurmuratov Anvar Yaxshiboyevich** pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
	Abdullayeva Feruza Suyunovna pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Navoiy davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.Ped.37.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "24" oktabr soat 9.00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 140117, O‘zbekiston, Samarqand, Gagarin ko‘chasi, 43-uy. Tel: (99866) 234-29-36; e-mail: info@samdchti.uz.

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (61975-raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 140117, O‘zbekiston, Samarqand, Gagarin ko‘chasi, 43-uy. Tel: (99866) 234-29-36.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "12" oktabr kuni tarqatildi.
(2026-yil "12" oktabr dagi №11-raqamli reyestr bayonnomasi).

U.U. Jumanazarov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

A.E. Rustamova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

A.Y. Nurmuratov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo amaliyotida ingliz adabiyotini o‘qitishda kulturologik yondashuvni joriy etish, talabalarda badiiy matn orqali madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini shakllantirish, adabiy asarlarning tarixiy, ijtimoiy va madaniy kontekstini tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni qiyosiy anglashga yo‘naltirilgan innovatsion metodlarni qo‘llash xorijiy tillarni o‘qitish metodikasining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Biroq amaliyotda ingliz adabiyotini kulturologik yondashuv asosida o‘qitishning didaktik va metodik asoslari, talabalarning madaniyatlararo kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik texnologiyalar, autentik adabiy materiallardan samarali foydalanish mexanizmlari hamda o‘quv natijalarini diagnostik baholash mezonlari yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi ta’lim samaradorligini cheklamoqda. Shu sababli ingliz adabiyotini o‘qitishda kulturologik yondashuvning didaktik modeli, metodik ta’minoti, interfaol o‘qitish mexanizmlari va madaniyatlararo kompetensiyani baholash tizimini ishlab chiqish hamda ularni oliy ta’lim amaliyotiga joriy etish dolzarb amaliy vazifa hisoblanadi.

So‘nggi yillarda dunyo ilmiy amaliyotida ingliz adabiyotini kulturologik yondashuv asosida o‘qitish, madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish, raqamli gumanitar fanlar, sun’iy intellekt asosida adabiy matnlarni tahlil qilish, virtual ta’lim muhitlari, kompetensiyaga yo‘naltirilgan o‘qitish hamda madaniyatlararo ta’lim konsepsiyalarini o‘quv jarayoniga integratsiyalash bo‘yicha keng ko‘lamli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo‘nalishda talabalarning adabiy-estetik tafakkurini rivojlantirish, ingliz badiiy asarlari orqali lingvomadaniy bilimlarni shakllantirish, madaniy stereotiplarni tanqidiy tahlil qilish hamda adabiyot vositasida madaniyatlararo muloqotni takomillashtirish ustuvor ilmiy yo‘nalishlar sifatida e’tirof etilmoqda. Kelgusida generativ sun’iy intellekt asosida adabiy matnlarni madaniy tahlil qilish platformalarini yaratish, talabalarning individual o‘quv trayektoriyalariga mos kulturologik ta’lim muhitlarini shakllantirish, madaniyatlararo kompetensiya rivojlanish dinamikasini monitoring qilish, oliy ta’lim uchun kulturologik yondashuvga asoslangan metodik modellarni ishlab chiqish hamda ushbu yondashuvning ingliz adabiyotini o‘zlashtirish samaradorligiga ta’sirini baholovchi ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish dolzarb hisoblanadi.

O‘zbekistonda ingliz adabiyotini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida o‘qitish, talabalarning madaniyatlararo kompetensiyasini rivojlantirish, xorijiy tillarni o‘qitishda kompetensiyaviy ta’lim, raqamli pedagogik texnologiyalar va sun’iy intellekt imkoniyatlarini keng joriy etish bo‘yicha tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda**.** “...Bugun insoniyat yangi sivilizatsiya davri - sun’iy intellekt davriga dadil kirib bormoqda. Qaysi sohada bo‘lmasin, kim birinchi bo‘lib qat’iyat va izchillik ko‘rsatib, aniq natijalarga erishsa, o‘sha hammadan oldinda bo‘ladi”[1]. Shunga muvofiq, oliy ta’lim tashkilotlarida ingliz adabiyotini o‘qitishda

[1] Prezident Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi, 20-dekabr 2022 y. //. – Elektron resurs. – URL: https://president.uz/oz/lists/view/5774 (ko‘rilgan: 20.02.2026).

kulturologik yondashuvni takomillashtirish, talabalarda adabiy va lingvomadaniy kompetensiyalarni kompleks rivojlantirish metodikasini ishlab chiqish, raqamli ta’lim vositalari va sun’iy intellekt asosida madaniyatlararo ta’lim muhitini yaratish, badiiy matnlarni kulturologik tahlil qilish texnologiyalarini ta’lim jarayoniga integratsiyalash hamda madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodik tizimni ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish dolzarb hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 29-oktabrdagi O‘RQ-576-son “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tashkilotini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 6-iyuldagi PF-165-son “2022–2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim tashkilotlarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2019-yil 3-maydagi PQ-4306-son “Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari va sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Xorijiy tillarni o‘qitish metodologiyasi, shuningdek, uni zamonaviy ta’lim sharoitida takomillashtirish masalalari respublikamiz olimlaridan G.X.Bakiyeva, L.T.Ahmedova, J.J.Jalolov, I.M.Tuxtasinov, O‘.X.Xoshimov, I.Yoqubov, T.K.Sattorov, M.T.Iriskulov, G.T.Maxkamova, U.U.Jumanazarov[2] kabi olimlarning ilmiy ishlari ushbu sohada

[2] Bakieva G., Iriskulov M., Russek M., Kan G., Tahirjanova S., Kambarov N. Stay in Touch. – Tashkent : UzSWLU, 2007. – 279 p.; Ахмедова Л.Т. Роль и место педагогических технологий в профессиональной подготовке студентов. – Ташкент : Фан ва технология, 2009. – 160 с.; Жалолов Ж.Ж. Чет тили ўқитиш методикаси : чет тиллари олий ўқув юртлари талабалари учун дарслик. – Тошкент : Ўқитувчи, 1996. – 368 б.; Жалолов Ж.Ж. Чет тили ўқитиш методикаси : чет тиллари олий ўқув юртлари (факультетлари) талабалари учун дарслик / Ж.Ж. Жалолов. – Тошкент : Ўқитувчи, 2012. – 432 б.; Тухтасинов И.М. Таржимон тайёрлашда касбий компетенцияларни эквивалентлик ҳодисаси асосида ривожлантириш : пед. фанл. докт. (DSc) дис. автореф. – Тошкент, 2018. – 48 б.; Ҳошимов Ў.Х., Ёкубов И. Инглиз тили ўқитиш методикаси. – Тошкент : ЎзДЖТУ, Шарқ нашрият-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2003. – 301 б.; Сатторов Т.К. Бўлажак чет тили ўқитувчисининг услубий омилкорлигини шакллантириш технологияси (инглиз тили материалида) : дис. … пед. фан. номз. – Тошкент : ТДЮИ, 2003. – 198 б.; Jalolov J.J., Makhkamova G.T., Ashurov Sh.S. English Language Teaching Methodology (theory and practice). – Tashkent : Fan va texnologiya, 2015. – 325 p.; Jumanazarov U.U. Ta’limni raqamlashtirish muhitida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining lingvistik kompetensiyasini rivojlantirish: avtoref. dis. … ped. fan. doktori. – Toshkent, 2018. – B. 89.

nazariy asoslarni mustahkamlash va o‘qitish samaradorligini oshirishga qaratilgan muhim tadqiqotlar sirasiga kiradi.

Respublikamizda ingliz adabiyotini o‘qitish metodikasi, lingvokulturologik yondashuv hamda badiiy matnni madaniy kontekstda tadqiq etish xususida Sh.Usmanova, G.Rixsiyeva, D.Xudoyberganova, N.Mahmudov, M.Bakoeva, S.B.Xamidova, A.R.Ziyodullayev, Y.U.Matenova, Z.R.Djurayeva, B.R.Kadirova, A.Y.Toshpuxorova, M.M.Mirsadullayev va F.J.Usmonovlarning[3] tadqiqotlari alohida ahamiyat kasb etadi.

MDH davlatlari olimlaridan Ya.V.Berejnaya, A.V.Zinkovskaya, S.G.Ter-Minasova, V.A.Maslova, X.A.Gazimayeva, Z.I.Yaxyayeva[4] va boshqa olimlar ilmiy-metodik adabiyotlarida ingliz tilini o‘qitishning zamonaviy metodlari va usullariga, kulturologik yondashuvga, shu jumladan, ingliz adabiyotini o‘qitish hamda badiiy matnni tahlil qilishga katta e’tibor qaratilmoqda.

G‘arb ilmiy tafakkurida ingliz tilini chet tili sifatida badiiy adabiyotga asoslangan holda o‘qitish masalasi bo‘yicha faol izlanishlar C.Kramsch, O.Kramsch, M.Byram, E.Burwitz-Melzer, G.Lazar, P.Carroli, X.Sun[5] kabi olimlarning ishlarida o‘z aksini topgan bo‘lib, ularda til va madaniyatning uzviy bog‘liqligi, madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani shakllantirish hamda

---

[3] Usmanova Sh. Lingvomadaniyatshunoslik [Matn]: darslik. – Toshkent: Bookmany print, 2022. – 286 b. Usmanova Sh., Rixsiyeva G. Madaniyatlararo muloqot: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: TDShI, 2017. – 160 b. Худойберганова Д. Матннинг антропоцентрик тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2013. – 136 б. Махмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқиқи йўлларини излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5. – Б. 3–16. Bakoeva M., Muratova E., Ochilova M. English Literature. – Tashkent, 2010. – 264 p. Xamidova S.B. Ingliz va o‘zbek tillarida badiiy matn paradokslarining lingvokulturologik xususiyatlari. – Filol. fan. PhD dissertatsiyasi. – Jizzax: Jizzax DPI, 2024. – 170 b. Ziyodullayev A.R. Ingliz va o‘zbek tilida eponimlarning lingvokognitiv hamda lingvokulturologik xususiyatlari. – Filol. fan. PhD dissertatsiyasi. – Buxoro: BuxDU, 2024. – 178 b. Matenova Yu.U. Muloqot va madaniyatlararo aloqadorlik poetikasi: zamonaviy fransuz adabiyotida (E.E. Schmitt asarlari misolida). – Filol. fan. dokt. (DSc) dissertatsiyasi. – Toshkent: O‘zDJTU, 2025. – 182 b. Djurayeva Z.R. Komponentli maqollarning lingvokulturologik xususiyatlari. – Filol. fan. PhD dissertatsiyasi. – Buxoro: BuxDU, 2024. – 150 b. Kadirova B.R. Belgi bildiruvchi leksemalarning lingvokulturologik xususiyatlari. – Filol. fan. PhD dissertatsiyasi. – Toshkent: O‘zDJTU, 2019. – 168 b. Toshpuxorova A.Y. Ingliz tili adabiyotini o‘qitish metodikasi: yangi yondashuvlar, muammolar va imkoniyatlar // Journal of International Scientific Research. – 2025. – Vol. 2, Issue 1. – B. 30–33. Mirsadullayev M.M. Ingliz adabiyotini o‘qitishda innovatsion yondashuvlarning amaliy ahamiyati // “Methodology of teaching foreign languages – innovations, traditions, problems and their solutions” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Samarqand, 2024. – 15 mart. Usmonov F.J. O‘zbek tilidagi o‘xshatishlarning lingvomadaniy tadqiqi. – Filol. fan. PhD dissertatsiyasi. – Toshkent: O‘zMU, 2019. – 172 b.

[4] Бережная Я.В. Современные методы изучения английского языка: анализ наиболее эффективных стратегий преподавания // Евразийский научный журнал. – 2021. – №8. – С. 34–45. Зиньковская А.В. Теория и методика обучения английскому языку: учебное пособие. – Краснодар: Кубанский государственный университет, 2021. – 137 с. Тер-Минасова С.Г. Язык и межкультурная коммуникация. – М.: Изд-во МГУ, 2004. – 352 с. Маслова В.А. Лингвокультурология: учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. – М.: Академия, 2001. – 208 с. Газимаева Х.А., Яхьяева З.И. Инновационные подходы к преподаванию английской литературы в российских вузах: стилистический аспект // Управление образованием: теория и практика. – 2024. – Т. 14, № 12-1. – С. 44–51.

[5] Kramsch C. Context and Culture in Language Teaching. – Oxford : Oxford University Press, 1993. – 295 p. Kramsch C., Kramsch O. The avatars of literature in language study // The Modern Language Journal. – 2000. – Vol. 84, № 4. – P. 553–573. – DOI: 10.1111/0026-7902.00087. Byram M. Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence. – 2nd ed. – Clevedon : Multilingual Matters, 2021. – 124 p. Burwitz-Melzer E. Teaching Intercultural Communicative Competence through Literature // Developing Intercultural Competence in Practice / ed. by M. Byram, A. Nichols, D. Stevens. – Clevedon : Multilingual Matters, 2001. – P. 29–43. Lazar G. Literature and Language Teaching: A Guide for Teachers and Trainers. – Cambridge : Cambridge University Press, 1993. – 268 p. Carroli P. Literature in Second Language Education: Enhancing the Role of Texts in Learning. – London : Continuum, 2008. – 198 p. Sun X. Literature in secondary EFL class: case studies of four experienced teachers' reading programmes in China // The Language Learning Journal. – 2023. – Vol. 51, № 2. – P. 145–160.

badiiy adabiyot materiallari bilan ishlashga oid zamonaviy ilmiy qarashlar yoritilgan.

Ammo zamonaviy ilmiy adabiyotlar tahlili shuni koʻrsatadiki, dissertatsiyada tadqiq etilayotgan muammoning dolzarbligi yuqori boʻlishiga qaramay, ushbu mavzuning nazariy va amaliy jihatlari yetarli darajada tadqiq etilmagan. Xususan, ingliz adabiyotini oʻqitishda kulturologik yondashuvni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan integratsiyalash hamda uni amaliyotga tatbiq etish masalalariga oid ilmiy izlanishlar cheklangan.

Dissertatsiya mavzusining bajarilgan oliy ta'lim tashkilotining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi. Tadqiqot ishi Samarqand davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Filologik oliy oʻquv yurtlarida chet tilini integrallashuv orqali oʻqitishda kadrlar tayyorlashning filologik hamda metodik asoslarini takomillashtirish" bandi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi oliy ta'lim tashkilotlarida ingliz adabiyotini oʻqitishda kulturologik yondashuvni qoʻllashning nazariy va amaliy asoslarini ilmiy jihatdan ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ingliz madaniyatining asosiy xususiyatlarini aniqlash va ularning badiiy adabiyotlarda aks etishini tahlil qilish;

xushmuomalilikni etnomadaniy hodisa sifatida oʻrganish va uning adabiy matnlardagi ifodasini ochib berish;

Oʻzbekiston oliy ta'lim tashkilotlarida ingliz adabiyotini oʻqitish metodikasini tahlil qilish;

kulturologik yondashuvning oʻrni va ahamiyatini aniqlash hamda uni ingliz adabiyoti ta'limiga integratsiyalash imkoniyatlarini baholash;

"Teskari sinf" texnologiyasini ingliz adabiyotini oʻqitishda samarali metod sifatida asoslash;

Google Classroom platformasida "Teskari sinf" texnologiyasi asosida mashqlar toʻplamini sinovdan oʻtkazish;

tadqiqot natijalarini umumlashtirish va OTTlarda ingliz adabiyotini oʻqitishda kulturologik yondashuvni qoʻllashni takomillashtirish boʻyicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida oliy ta'lim tashkilotlarida ingliz adabiyotini oʻqitish jarayoni belgilangan.

Tadqiqotning predmetini oliy ta'limda ingliz adabiyotini oʻqitishda kulturologik yondashuvni qoʻllashning mazmuni, shakllari va metodlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda nazariy (analitik-sintetik, qiyosiy-taqqoslash), diagnostik (soʻrovnomalar, testlar, kuzatish), prognostik (ekspert bahosi, baholarni umumlashtirish), pedagogik tajriba va matematik statistika (ma'lumotlarni statistik qayta ishlash, natijalarni grafik tarzda taqdim etish va boshqalar) usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ingliz adabiyotini oʻqitish metodikasida xushmuomalilikning etnomadaniy xususiyatlarini adabiy matnlar orqali aniqlash hamda talabalarda madaniyatlararo

pragmatik kompetensiyani rivojlantiruvchi lingvopragmatik tahlil mexanizmi *matndagi nutqiy aktlar, murojaat shakllari va madaniy kontekstni bosqichma-bosqich qiyosiy tahlil qilish asosida* ishlab chiqilgan;

kulturologik yondashuvni ta'lim mazmuni, badiiy matn tahlili va baholash mezonlari bilan uyg'unlashtiruvchi integrativ metodik tizim ishlab chiqilib, unda matnning til birligi emas, balki madaniy-semantik hodisa sifatida idrok etilishi va ta'lim komponentlarining o'zaro uyg'unligi orqali talabaning madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyasi rivojlanishi ilmiy asoslangan;

"Teskari sinf" texnologiyasini kulturologik yondashuv bilan integratsiyalashga asoslangan didaktik mexanizm ishlab chiqilib, unda talaba badiiy matn bilan *preleksion mustaqil tanishuv* bosqichini o'tab, *auditoriya vaqtini interpretativ tahlil, tanqidiy diskurs va lingvokulturologik kontekst* tahliliga ajratishi talabalarning *interpretativ va madaniy-kognitiv* kompetensiyalarini sinergik tarzda rivojlantirishi isbotlangan;

ingliz adabiyotini „Teskari sinf" texnologiyasi va kulturologik yondashuv asosida o'qitish samaradorligini baholovchi *interpretativ chuqurlik, madaniy-kontekstual bog'lash va diskursiv argumentatsiya* ko'rsatkichlariga asoslangan uch komponentli mezonlar tizimi ishlab chiqilib, unda baholash predmeti sifatida talabaning matnni reproduktiv o'zlashtirish darajasi emas, balki uning mustaqil talqin qilish, madaniy kontekstga bog'lash va o'z fikrini madaniy dalillar bilan asoslash ko'nikmasi belgilanganligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

oliy ta'lim tashkilotlarida ingliz adabiyotini kulturologik yondashuv asosida o'qitishga mo'ljallangan, badiiy matnlarning lingvomadaniy, diskursiv-pragmatik va madaniyatlararo tahliliga yo'naltirilgan metodik model ishlab chiqilgan;

ingliz adabiyoti darslarida talabalarning interpretativ tafakkuri, lingvomadaniy kompetensiyasi va pragmatik savodxonligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi kulturologik topshiriqlar, refleksiv mashqlar, interaktiv o'quv materiallari tizimlashtirilgan;

Google Classroom platformasi asosida "Teskari sinf" texnologiyasiga integratsiyalashgan elektron mashqlar majmuasi va raqamli didaktik ta'minot amaliyotga joriy etilgan;

ingliz adabiyotini kulturologik yondashuv asosida o'qitish samaradorligini baholashga xizmat qiluvchi diagnostik mezonlar, kompetensiyaviy indikatorlar, metodik tavsiyalar ishlab chiqilib, ularni oliy ta'lim amaliyotiga tatbiq etish mexanizmlari taklif qilingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotda qo'llaniladigan yondashuv va tahlil metodlari zamonaviy lingvistik va pedagogik nazariyalarga mos kelishi, shuningdek, uslubiy jihatdan asoslanganligi, tadqiqot materiallari ishonchli manbalardan olinganligi, muammo aniq shakllantirilganligi, xulosalar mantiqiy ravishda taqdim etilganligi, tadqiqot natijalari amaliyotga joriy etilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tadqiqot natijasida oliy ta'lim tashkilotlarida ingliz adabiyotini kulturologik yondashuv asosida o'qitishning nazariy-metodologik asoslari

takomillashtirilib, badiiy matnni madaniyatlararo kontekstda interpretatsiya qilish, talabalarning madaniy, kommunikativ va analitik kompetensiyalarini integratsiyalashgan holda rivojlantirishga xizmat qiluvchi didaktik model hamda uning pedagogik shart-sharoitlari ilmiy jihatdan asoslandi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan kulturologik yondashuvga asoslangan o‘qitish modeli, metodik tavsiyalar, o‘quv-topshiriqlar tizimi va baholash mezonlari oliy ta’lim tashkilotlarida ingliz adabiyoti fanini o‘qitish amaliyotiga joriy etish, talabalarning badiiy matnni chuqur tahlil qilish, madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirish hamda zamonaviy ta’lim texnologiyalarini samarali qo‘llash imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Oliy ta’lim tashkilotlarida ingliz adabiyotini kulturologik yondashuv asosida o‘qitish bo‘yicha olingan natijalar, ishlab chiqilgan metodik va amaliy tavsiyalar asosida:

ingliz adabiyotini o‘qitish metodikasida xushmuomalilikning etnomadaniy xususiyatlarini adabiy matnlar orqali aniqlash, hamda talabalarda madaniyatlararo pragmatik kompetensiyani rivojlantiruvchi lingvopragmatik tahlil mexanizmi *matndagi nutqiy aktlar, murojaat shakllari va madaniy kontekstni bosqichma-bosqich qiyosiy tahlil qilish asosida* ishlab chiqilganligi haqidagi ma’lumotlardan O‘zRFA QQB Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan bajarilgan FZ-2016-0908165532 raqamli “Qoraqalpoq tilining yangi alfaviti va imlo qoidalariga muvofiq ona tili va adabiyotini rivojlantirish metodikasi” mavzusida bajarilgan fundamental loyihasida foydalanilgan (O‘zRFA QQB Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2024-yil 8-iyuldagi №283-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, chet tildan dars beruvchi professor-o‘qituvchilarning dars o‘tish jarayonida va undan keyin paydo bo‘ladigan ta’limiy qiyinchiliklarning oldi olinishiga erishilgan;

kulturologik yondashuvni ta’lim mazmuni, badiiy matn tahlili va baholash mezonlari bilan uyg‘unlashtiruvchi integrativ metodik tizim ishlab chiqilib, unda matnning til birligi emas, balki madaniy-semantik hodisa sifatida idrok etilishi va ta’lim komponentlarining o‘zaro uyg‘unligi orqali talabaning madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyasi rivojlanishi ilmiy asoslanganligi haqidagi nazariy va ilmiy ma’lumotlardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida Davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasidagi 2022–2024-yillarda amalga oshirilgan № IL-402104209 raqamli “Axborot-qidiruv tizimlari (Google, Yandex, Google translate) uchun avtomatik ishlov berish vositasi - o‘zbek tilining morfoleksikoni va morfologik analizatori dasturiy vositasini yaratish” mavzusidagi grant loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 18-fevraldagi № 04/1-598-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, chet tilini o‘qitishda talabalarning til va nutq malakalarida uchraydigan kamchiliklarni aniqlash va ularni o‘quv faoliyati davomida tuzatishga erishilgan;

“Teskari sinf” texnologiyasini kulturologik yondashuv bilan integratsiyalashga asoslangan didaktik mexanizm ishlab chiqilib, unda talaba badiiy matn bilan *preleksion mustaqil tanishuv* bosqichini o‘tab, *auditoriya vaqtini*

interpretativ tahlil, tanqidiy diskurs va lingvokulturologik kontekst tahliliga ajratishi talabalarning *interpretativ va madaniy-kognitiv* kompetensiyalarini sinergik tarzda rivojlantirishi isbotlanganligi haqidagi nazariy va ilmiy ma’lumotlardan Samarqand davlat chet tillar institutida Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2022-yil 12-dekabrdagi 2/24-4/7-690-son xatiga asosan 2022–2024-yillarda amalga oshirilgan va Toshkent shahridagi AQSh elchixonasi hamda AQSh davlat departamenti tomonidan moliyalashtirilgan SUZ80020GR0039-raqamli “English Access Microscholarship Program” loyihasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2025-yil 26-avgustdagi № 2474/02-son ma’lumotnomasi). Natijada, ingliz adabiyotini o‘qitishda talabalarning mustaqil tahliliy yondashuvi va madaniyatlararo kompetensiyasini rivojlantirishga erishilgan;

ingliz adabiyotini „Teskari sinf“ texnologiyasi va kulturologik yondashuv asosida o‘qitish samaradorligini baholovchi *interpretativ chuqurlik, madaniy-kontekstual bog‘lash va diskursiv argumentatsiya* ko‘rsatkichlariga asoslangan uch komponentli mezonlar tizimi ishlab chiqilib, unda baholash predmeti sifatida talabaning matnni reproduktiv o‘zlashtirish darajasi emas, balki uning mustaqil talqin qilish, madaniy kontekstga bog‘lash va o‘z fikrini madaniy dalillar bilan asoslash ko‘nikmasi belgilanganligi haqidagi ilmiy va amaliy natijalaridan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston” teleradiokanalining “Bedorlik”, “Ijod zavqi”, “Ta’lim va taraqqiyot”, “Millat va ma’naviyat” eshittirishlari ssenariysini yozishda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2025-yil 20-yanvardagi №25-36-939-son ma’lumotnomasi). Natijada, chet tilini o‘qitishda kulturologik yondashuv metodikasidan foydalanish ommalashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta ilmiy anjumanda, jumladan, 4 ta xalqaro, 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida ma’ruza qilinib, muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 18 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan 1 ta mobil ilova, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola, jumladan, 6 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda e’lon qilingan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 139 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **“Kirish”** qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsadi va vazifalari belgilangan, obyekti va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining

amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Ingliz adabiyotini o‘qitishda kulturologik yondashuvning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida adabiyot ta’limida kulturologik yondashuvning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari, uning nazariy manbalari hamda mazkur yondashuvning asosiy tamoyillari tahlil qilinib, ularni ingliz adabiyoti darslarida qo‘llash imkoniyatlari ilmiy jihatdan asoslab berilgan; shuningdek, ingliz adabiyotini madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirish vositasi sifatida o‘rganishning mazmuni, talabalarda madaniy ongni shakllantirish, turli madaniyatlarni qiyosiy anglash va samarali muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik omillar yoritilib, mazkur yondashuvning ta’lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyati umumlashtirilgan.

Hozirgi zamon ta’lim konsepsiyasida chet tilini o‘qitish shaxsni faqat bilim egasi sifatida emas, balki madaniyatni anglagan, turli xalqlar bilan muloqotga tayyor va milliy o‘zligini chuqur his etgan inson sifatida shakllantirish ustuvor vazifa bo‘lib belgilanmoqda. Aynan shu maqsadga erishishda kulturologik yondashuv pedagogik nazariyada shaxsning madaniy tajribasini kengaytirish, madaniyatlararo muloqotga tayyorlash va milliy o‘zlikni anglashni mustahkamlashga xizmat qiluvchi metodologik tamoyil sifatida talqin etiladi. Xorijiy tadqiqotlarda A.Liddicoat va A.Skarino til o‘qitishni madaniyat, muloqot va shaxs rivojini qamrab oluvchi yaxlit pedagogik maydon sifatida ko‘rib chiqadilar[6]. V.A. Voronin o‘qituvchini sinfda madaniy vositachi sifatida belgilasa[7], H.Spenser-Outi va D.Kadar esa xushmuomalilikni har bir madaniyatda munosabatlarni boshqaruvchi me’yorlar tizimi sifatida ko‘radi[8]. Shu tariqa, kulturologik yondashuv ta’limda jamiyatning madaniy poydevorini mustahkamlovchi va shaxsning bilim, madaniyat hamda ma’naviyat uyg‘unligida kamol topishiga xizmat qiluvchi muhim metodologik asos sifatida namoyon bo‘ladi. Adabiyot ta’limi doirasida kulturologik yondashuvning tatbiq etilishi adabiy asarni tahlil qilish jarayonida madaniy kodlar, tarixiy kontekst, milliy mentalitet va an’anaviy qadriyatlarni hisobga olish zaruriyatidan kelib chiqadi. Z.Mirzayeva va K.Jalilov ta’kidlaganidek, “Adabiyot inson tafakkuri rivojining eng muhim omillaridan biri sanaladi. Badiiy adabiyotda muayyan bir millat qomusi, ruhiyati, tarixi, dini, madaniyati, e’tiqodiga xos bo‘lgan xususiyatlar mujassam”[9]. Mazkur fikr adabiyotning nafaqat estetik ahamiyatini, balki uning madaniy ongni shakllantirishdagi beqiyos o‘rnini ochib beradi. O‘zbekiston ilmiy maktabida N.Mahmudov, I.Mirzayev, M.Yo‘ldoshev[10] kabi olimlar adabiy asarni

[6] Liddicoat A.J., Papademetre L., Scarino A., Kohler M. Report on intercultural language learning. – Canberra: Australian Department of Education, Science and Training, 2003. – 186 p.

[7] Воронин В.А. Современные методы обучения английскому языку: возможности использования материала художественных произведений и особенности организации и проведения занятий в высшей школе // Мир науки. Педагогика и психология. – 2020. – № 5. – С. 265–273.

[8] Spencer-Oatey H., Kádár D.Z. Intercultural politeness: Managing relations across cultures. – Cambridge: Cambridge University Press, 2021. – 300 p.

[9] Mirzayeva Z., Jalilov K. Adabiyot o‘qitish metodikasi (An’anaviylikdan zamonaviylikka). – Toshkent: TDOTAU, 2020. – B.7.

[10] Махмудов Н. “Тилнинг мукаммал тадқиқи йўлларини излаб...” // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5. – Б. 3–16.; Mirzayev I.K. Tahliliy o‘qish: filolog-bakalavriant, magistrant va doktorantlarga mo‘ljallangan

qolipdan xoli tahlil qilish va estetik madaniyatni shakllantirish masalalarini ilgari surganlar, D. Xudoyberganova[11] esa matnning antropotsentrik tahlilini ishlab chiqqan. Ingliz tilini o‘qitish metodikasi sohasida J. Jalolovning tadqiqotlari adabiy matnlarning tarbiyaviy va madaniy ahamiyatini yoritish hamda chet tilini o‘qitish metodlarini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kulturologik yondashuv adabiyotni o‘qitishda quyidagi asosiy tamoyillarga tayanadi: madaniyat va tilning uzviy bog‘liqligi – tilni madaniyat bilan ajralmas butunlikda o‘rganish; madaniy relativizm – boshqa madaniyatni o‘z kontekstida, o‘zga mezonlarsiz tushunish va talabada bag‘rikenglik hamda ochiq fikrlilikni shakllantirish; madaniy intertekstualizm – adabiy asarni boshqa asarlar, tarixiy voqealar va urf-odatlar bilan bog‘liqligida keng madaniy tizimning bir qismi sifatida talqin qilish; tajriba orqali anglash – madaniyatni sahnalashtirish, rolli o‘yinlar va muhokama kabi interaktiv metodlar orqali amaliy o‘zlashtirish; madaniy ko‘pqatlamlilik (plurikulturalizm) – turli madaniyatlarni o‘zaro taqqoslab, integratsiyalash asosida talabada keng dunyoqarashni shakllantirish. Ushbu tamoyillar majmui adabiyotni o‘qitish jarayonini faqat lingvistik ko‘nikma hosil qilishdan iborat bo‘lmagan, balki shaxsni madaniy va ma’naviy jihatdan kamol toptiruvchi yaxlit tizimga aylantiradi.

Ingliz adabiyoti ta’limi til va madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirish imkonini beradi. Madaniyatlararo kompetensiya (intercultural competence) – bu shaxsning boshqa madaniyat vakillari bilan samarali va hurmatga asoslangan muloqot olib borish, ularning qadriyatlari, urf-odatlari, axloqiy mezonlarini anglash, tafovutlarni to‘g‘ri baholash, shuningdek, o‘z madaniyatini o‘zgalarga tushunarli tarzda ifodalash qobiliyatidir. Kulturologik yondashuv asosida shakllanadigan madaniyatlararo kompetensiya tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat[12] (1-jadvalga qarang):

1-jadval

Madaniyatlararo kompetensiyaning tarkibiy qismlari

№	Tarkibiy qismlar	Tavsifi
1.	**Madaniy bilim**	Turli xalqlarning qadriyatlari, urf-odatlari va dunyoqarashi haqida bilimga ega bo‘lish
2.	**Qiyosiy-madaniy tahlil**	Madaniy o‘xshash va farqli jihatlarni tahlil qila olish
3.	**Estetik va badiiy baholash**	Asarning badiiy hamda madaniy qiymatini anglay olish
4.	**Intertekstual tafakkur**	Asarni boshqa adabiy va madaniy kontekstlar bilan bog‘lay olish qobiliyati
5.	**Moslashuvchanlik va tolerantlik**	Boshqa madaniyat vakillariga hurmat va ochiq munosabatda bo‘lish
6.	**Kommunikativ ko‘nikmalar**	O‘z fikri va madaniy qarashlarini samarali ifodalay olish

Ingliz adabiyoti orqali madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirishda quyidagi metodik yondashuvlar qo‘llanilmoqda: kulturologik tahlil: matn faqatgina

darslik. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2022. – 248 b.; Yo‘ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – Toshkent: Fan, 2007. – 123 b.

[11] Худойберганова Д. Матннинг антропоцентрик тадқиқи. – Тошкент : Фан, 2013.– 136 б.

[12] Хроленко А.Т. Применение культурологического подхода в высшей школе. – М.: Флинта: Наука, 2021. – 362 с.

til jihatdan emas, balki madaniyat kontekstida o‘rganiladi; qiyosiy madaniyatshunoslik: talabalar ingliz adabiyotidagi obrazlarni, an’analarni o‘z milliy madaniyati bilan solishtiradi; dialogik o‘qish: bahs, munozara, “fikrlar jangi” metodlari orqali madaniy qadriyatlar to‘qnashuvi, stereotiplar, empatiya masalalari muhokama qilinadi; madaniyatlararo topshiriqlar: talabalarga boshqa madaniyatga oid kontekstlarda esse yozish, “case study” tahlil qilish, madaniy kvestlar tashkil etish orqali ular faol ishtirok etishga jalb qilinadi[13].

Ingliz adabiyotini o‘qitishda kulturologik yondashuvning nazariy asoslari shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy filologik va pedagogik ta’lim tizimida badiiy matnlarni o‘rganish jarayoni lingvistik bilimlarni egallash bilan birga til vositasida ifodalangan madaniy qatlamlarni chuqur anglash ham demakdir. Ingliz adabiyoti namunalarida aks etgan obrazlar tizimi, milliy xarakter va ijtimoiy-madaniy kontekstlar o‘quvchi shaxsida keng dunyoqarash, tolerantlik va madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishda beqiyos ahamiyatga ega.

Ikkinchi bob **“Kulturologik yondashuvning didaktik asoslari va uni chet til adabiyoti darslarida qo‘llash usullari”** deb nomlanib, kulturologik yondashuvni ingliz adabiyoti darslarida amaliyotga tatbiq etishning metodik asoslarini yoritadi. Bobda ingliz adabiyoti darslarida madaniy komponentni o‘quv jarayoniga uyg‘unlashtirish metodlari tahlil qilinadi, chet til o‘qituvchisidan talab etiladigan rol va kompetensiyalar ko‘rib chiqiladi, zamonaviy “Teskari sinf” (Flipped classroom) texnologiyasi asosida kulturologik yondashuvni amalga oshirishning uslubiy modeli taqdim etiladi hamda ushbu yondashuv asosidagi topshiriqlar tizimi o‘z aksini topadi. Umuman olganda, ikkinchi bob birinchi bobda nazariy jihatdan asoslangan kulturologik yondashuvni aniq metod va amaliy vositalarga aylantirib, uni o‘quv jarayoniga tatbiq etishning to‘liq mexanizmini ochib beradi.

Ingliz adabiyoti darslarida tilni o‘rganish va madaniyatni anglash jarayonlari bir-birini taqozo etadi, chunki til bilimi yetarli bo‘lgan talaba ham adabiy matnni to‘liq idrok eta olmaydi – agar uning ortidagi madaniy qatlamni tushunmasa. Shu sababli kulturologik yondashuv tilni shunchaki kommunikatsiya vositasi sifatida emas, balki muayyan xalqning milliy ongi, dunyoqarashi, axloqiy me’yorlari va mentalitetini o‘zida mujassam etgan madaniy kod sifatida talqin etadi. Binobarin, ta’lim mazmuniga quyidagi madaniy komponentlar kiritilishi zarur: real madaniyat (realia) – geosiyosiy tushunchalar, tarixiy voqealar, ijtimoiy institutlar; kommunikativ-madaniy komponentlar – muloqotdagi urf-odatlar, etika qoidalari va tana tili; tarixiy-ijtimoiy kontekst – asar yaratilgan davr, jamiyat tuzilmasi, ijtimoiy munosabatlar va milliy mentalitet; madaniy kodlar va simvollar – bayroq, madhiyalar, ranglar, ramzlar hamda milliy an’analar. Kulturologik yondashuv asosida dars tashkil qilish uchun bir qator muhim shartlarga rioya etish zarur. Avvalo, o‘quv materiali til va madaniyatni integrallashgan holda taqdim etilishi kerak. Shu bilan birga, dars jarayoni muammoli vaziyatlar asosida qurilib, talabalarni mustaqil fikrlash va madaniy kontekstda yechim izlashga undashi lozim. Jarayon samaradorligi uchun interaktiv metodlar – rol o‘ynash, madaniy

[13] Liddicoat A.J. Intercultural language teaching: Principles for practice // The New Zealand Language Teacher. – 2004. – Vol. 30. – P.17-24.

simulyatsiya va boshqa faol usullar qo‘llaniladi[14]. Nihoyat, talabalarda o‘z fikrini tahlil qilish va baholash ko‘nikmalarini shakllantirish maqsadida topshiriqlar refleksiya va tahlilga yo‘naltirilgan bo‘lishi muhimdir. Shu tarzda tashkil etilgan dars til va adabiyotni o‘rgatish bilan bir qatorda madaniy kompetensiyani rivojlantiradi. Kulturologik yondashuvni ingliz adabiyoti darslarida samarali amalga oshirish uchun quyidagi o‘qitish metodlari tavsiya etiladi: a) madaniy-kontekstual o‘qish – talabalar matnni madaniy kontekstda tahlil qiladi. Liddicoatning ta’kidlashicha, til o‘qitish madaniy kontekstdan ajralgan holda amalga oshirilsa, til bilimi yuzaki va amaliy jihatdan cheklangan bo‘lib qoladi[15]. Masalan, Dikkens asarlarida XIX asr Londoni ijtimoiy tengsizligi va urbanizatsiyasi madaniy fon sifatida o‘rganiladi; b) qiyosiy madaniy tahlil – talabalar ingliz adabiyotidagi obrazlarni o‘z milliy adabiyoti bilan solishtiradi. Byram modeliga ko‘ra, bu jarayon madaniy sezuvchanlik va taqqoslash ko‘nikmasini shakllantiradi[16]. Masalan, “Victorian Lady” (Jane Eyre) va o‘zbek adabiyotidagi “Oqila ayol” (Kumush) timsollarini qiyoslashda talabalar “Bu obrazlarda qaysi madaniy qadriyatlar aks etgan?”, “Ikki obraz orasidagi mushtarak va farqli jihatlar nimalarda ko‘rinadi?” kabi savollar asosida ishlaydi; c) dramatizatsiya va madaniy simulyatsiya – asardagi sahnalarni rolli o‘yin orqali jonlantirish talabaga tilni madaniy muhitda o‘zlashtirishning samarali imkonini beradi; d) tanqidiy adabiy tahlil – talabalar muallifning madaniy pozitsiyasini va asar yozilgan davr ijtimoiy muhitini tahlil qiladi; e) kross-madaniy loyihalar – talabalar taqdimot, esse yoki ijodiy ish orqali ikki madaniyat o‘rtasidagi mushtaraklik va tafovutlarni mustaqil tadqiq etadi.

Hozirgi zamon chet til ta’limi jarayoni chet til o‘qituvchisining professional roli va pedagogik kompetensiyalarini qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi. Kulturologik yondashuv nuqtayi nazaridan o‘qituvchi ko‘p funksiyali madaniyat vakili sifatida uch asosiy rolni bajaradi: madaniyatlararo vositachi (intercultural mediator) sifatida til bilan birga madaniy kontekstni tushuntiradi; reflektiv fasilitator (reflective facilitator) sifatida talabalarning milliy identitetini anglash va boshqa madaniyatlarni hurmat qilishga yo‘naltiruvchi vaziyatlar yaratadi; integratsiyalovchi dizayner (integrative designer) sifatida esa o‘quv dasturiga filmlar, adabiy matnlar va ommaviy axborot vositalari orqali real madaniy kontekstlarni kiritadi.

XXI asrda ta’lim jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan va axborot-kommunikatsion texnologiyalarga tayangan yondashuvlar markaziy o‘rin tutmoqda. Shulardan biri “Teskari sinf” (Flipped classroom) texnologiyasi bo‘lib, u an’anaviy o‘qitishning passiv modelini aktiv, interaktiv, madaniyatlararo o‘zaro ta’sirga asoslangan metodikaga aylantirish imkonini beradi. Bu texnologiya 2007-yilda amerikalik o‘qituvchilar J. Bergmann va A. Sams tomonidan amaliyotga joriy etilgan bo‘lib, 2012-yilda nashr etilgan “Flip Your Classroom” asaridan so‘ng

[14] Добросклонская Т.Г. Методика преподавания иностранных языков. – М.: Высшая школа, 2021. – 160 с.
[15] Liddicoat A.J. Ko‘rsatilgan asar.– P. 18.
[16] Byram M. Ko‘rsatilgan asar.–P. 78.

jahon ta’lim tizimida keng ommalasha boshladi[17]. Ingliz adabiyotini o‘qitishda esa Kolorado shtatidagi o‘qituvchi A. Gudenrath 2012-yilda bu texnologiyani adabiyot darslarida muvaffaqiyatli qo‘llab, o‘quvchilar matnni uyda mustaqil o‘qib va videomateriallarni ko‘rib kelishi, sinfda esa munozara olib borishi modelini taklif etgan[18]. Ingliz adabiyoti darslarida ushbu texnologiya orqali kulturologik yondashuvni integratsiyalash talabaning til va madaniyatni birgalikda anglashiga, madaniyatlararo tafakkurini shakllantirishga, tahlil qilish ko‘nikmasini rivojlantirishga yordam beradi. Teskari sinfda kulturologik yondashuvni amalga oshirish quyidagi bosqichlar va komponentlardan iborat (2-jadvalga qarang):

2-jadval

Ingliz adabiyotini o‘qitishda kulturologik yondashuv – Flipped Classroom texnologiyasi

Bosqich	Faoliyat va topshiriqlar	O‘qituvchi roli	Talaba faoliyati
1. Pre-cultural – Madaniy kirish *(Uyda – darsdan oldin)*	Adabiy asardan parcha (video/audio), muallif davri madaniyati, kirish savollari	Madaniy kontekst yaratuvchi	Materialni mustaqil o‘rganadi; ingliz va o‘z madaniyatidagi o‘xshashliklarni kuzatadi; dastlabki taassurotga ega bo‘ladi
2. While-cultural – Individual tahlil *(Darsda + uyda)*	O‘qituvchi bergan tahlil sxemasi asosida madaniy kodlarni belgilash, qiyosiy jadval tuzish, tahliliy savollarga javob yozish	Tahlil sxemasini ishlab chiquvchi, yo‘naltiruvchi	Sxema asosida madaniy kodlarni belgilaydi; qiyosiy jadval to‘ldiradi
3. Cross-cultural – Madaniyatlararo dialog *(Darsda)*	Guruh munozarasi, rolli o‘yin, komparativ tahlil taqdimoti	Mediator, madaniy tafakkurni rivojlantiruvchi	Tahlilini guruhga taqdim etadi; qahramon rolini o‘ynaydi; “Madaniy xarita” tuzadi
4. Post-cultural – Refleksiya va sintez *(Uyda)*	Refleksiya savollari, esse yozish, portfolio to‘ldirish, o‘z-o‘zini baholash	Refleksiyaga yo‘naltiruvchi	O‘z qarashlari o‘zgarishini ifodalaydi; esse yozadi, portfolio to‘ldiradi; keyingi dars uchun tahliliy savollar tayyorlaydi

Kulturologik yondashuv asosida tashkil etilgan ingliz adabiyoti darslarida baholash jarayoni talabaning nafaqat til kompetensiyasini, balki madaniy tafakkuri, tanqidiy fikrlashi, reflektiv yondashuvi va kommunikativ faolligini aniqlashga xizmat qiladi. Shundan kelib chiqib, baholash tizimi jarayoniy (formativ) va yakuniy (summativ) yondashuvlar asosida tashkil etilib, madaniy tahlil, qiyosiy fikrlash, refleksiv esse yozish, jamoaviy muhokama, dramatizatsiya va ijodiy topshiriqlardagi ishtirok orqali kompleks ravishda amalga oshiriladi. Jarayoniy baholash dars davomida talabaning madaniy matnni anglash, fikr bildirish va interaktiv faoliyatdagi ishtirokini muntazam kuzatishga xizmat qilsa, yakuniy baholash esa refleksiv yozuv, madaniy tahlil va qiyosiy esse topshiriqlari orqali

[17] Bergmann, J. Flip Your Classroom: Reach Every Student in Every Class Every Day / J. Bergmann, A. Sams. – Washington : ISTE, 2012.–112 p.

[18] Bennett B., Kern J., Gudenrath A., McIntosh P. The flipped class revealed [Elektron resurs]. – 2011. – Foydalanish rejimi: http://www.thedailyriff.com/articles/the-flipped-class-what-does-a-good-one-look-like-692.php (murojaat qilingan sana: 17.05.2024).

talabaning madaniyatlararo kompetensiyasi hamda analitik tafakkurini aniqlashga yo‘naltiriladi (3-jadvalga qarang):

3-jadval


Kulturologik yondashuv asosida ingliz adabiyotini o‘qitishda baholash mezonlari

Ko‘rsatkich	“5” baho (a’lo)	“4” baho (yaxshi)	“3” baho (qoniqarli)	“2” baho (yetarli emas)
1. Madaniy tahlil va talqin	Madaniy matnni unsurlarga ajratib, chuqur va ko‘p qatlamli talqin qiladi	Matnni asosan to‘g‘ri tahlil qiladi va o‘rinli talqin keltiradi	Yuzaki tahlil va cheklangan talqin mavjud	Tahlil cheklangan yoki noto‘g‘ri, talqin yo‘q
2.Madaniyatlararo qiyoslash	O‘z va ingliz madaniyatini aniq, dalilga asoslangan holda qiyoslaydi	Qisman o‘rinli madaniy qiyoslash keltiradi	Qiyoslash cheklangan va sirtqi	Aniq madaniy qiyoslash mavjud emas
3. Tanqidiy fikrlash va mustaqillik	Kuchli, dalillangan, mustaqil va original fikr bildiradi	Mantiqiy, ammo soddalashgan fikr; qisman tayyor qoliplarga suyanadi	Oddiy fikr, andoza asosida ishlaydi, dalil zaif	Asossiz, stereotipga asoslangan yoki taqlidiy fikr
4. Kommunikativ faollik	Yuqori darajada faol, fikrini aniq va ishonchli ifodalaydi	Muhokamalarda faol ishtirok etadi	Muloqotda qisman ishtirok etadi	Passiv, muloqotda ishtirok etmaydi
5. Refleksiv esse	Madaniy tajribasini chuqur, izchil va o‘z-o‘zini tahlil qilgan holda refleksiv esse yozadi	Refleksiv esse to‘g‘ri yozilgan, ammo tahlil ayrim o‘rinlarda yuzaki	Refleksiya sodda va cheklangan	Refleksiya kuzatilmaydi yoki esse yoza olmaydi

Ingliz adabiyoti darslarida kulturologik komponentni uyg‘unlashtirish, o‘qituvchining roli va kompetensiyasi, teskari sinf texnologiyasi hamda topshiriqlar tizimini yaratish bo‘yicha olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bu yondashuv ta’lim samaradorligini oshirib, madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Kulturologik komponentni qo‘llash nafaqat adabiy matnni lingvistik jihatdan tahlil qilish, balki uning ortidagi ijtimoiy, tarixiy va estetik kontekstni ham ochib beradi. O‘qituvchi esa madaniyatlararo vositachi va fasilitator sifatida faoliyat yuritishi zarur. Teskari sinf modeli va madaniy topshiriqlar tizimi talabalarni mustaqil fikrlash, madaniy tafakkur, tolerantlik va global dunyoqarashni rivojlantirishga yo‘naltiradi. Shu orqali ingliz adabiyoti darslari oddiy til o‘rganish emas, balki shaxsiy va madaniy o‘sish maydoniga aylanadi.

Ingliz adabiyotini o‘qitishda kulturologik yondashuvning nazariy va amaliy jihatlarini yagona tizim asosida uyg‘unlashtirish maqsadida maxsus pedagogik model yaratildi. Modelning maqsadli, metodologik, mazmuniy, texnologik-jarayonli hamda diagnostik-natijaviy bloklardan tashkil topgani ta’lim jarayonining izchil va tizimli tashkil etilishini ta’minlaydi. Unda madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirish, adabiy matnning madaniy qatlamlarini anglash, tanqidiy va kreativ tafakkurni shakllantirish asosiy ustuvor yo‘nalish sifatida

belgilangan. Shuningdek, model interaktiv metodlar, raqamli vositalar va refleksiv faoliyat orqali talabaning mustaqil fikrlashi, madaniy tafakkuri va kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi (1-modelga qarang):



1-model. Kulturologik yondashuv asosida ingliz adabiyotini o‘qitish modeli

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Ingliz adabiyotini o‘qitishda kulturologik yondashuvni qo‘llash bo‘yicha tajriba-sinov ishlari”** deb nomlanadi. Ushbu bobda SamDCHTI, BuxDU va QarDU talabalari ishtirokida ingliz adabiyotini o‘qitishda kulturologik yondashuvning samaradorligi Google Classroom platformasida “Teskari sinf” (Flipped Classroom) texnologiyasi asosida tajriba-sinov orqali tekshirildi. Tadqiqotda dastlabki (birlamchi) va yakuniy (ikkilamchi) diagnostikalar o‘tkazilib, talabalarning bilim darajasi jadvallar, diagrammalar va matematik-statistik tahlillar asosida baholandi. Eksperiment davomida ingliz adabiyotiga oid mashqlar, podkastlar, videoma’ruzalar va interaktiv topshiriqlar qo‘llanildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, tajriba guruhlarida talabalarning bilim darajasi sezilarli oshdi, motivatsiyasi kuchaydi, madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalari rivojlandi hamda o‘quv jarayonining samaradorligi an’anaviy usullarga nisbatan yuqori bo‘ldi.


